

BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARIDA ILG'OR TEXNALOGIYALARING AHAMIYATI

Saparova Umida Baxromovna

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti

Kamoliddinova Dilhumor Ulug'bek qizi

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yangi bilimlarni egallashda ilg'or texnalogiyalarini mohiyati ochib berilgan.*

Kalit so'z: *Maktab, o'quvchi, texnalogiya, bilim, pedagogika, metod*

Abstract: *This article reveals the importance of advanced technologies in acquiring new knowledge for elementary school students.*

Key word: *School, student, technology, knowledge, pedagogy, method,*

Kirish: Ta'limda zamonaviy ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlarni samarali o'qitish va tarbiyalashning umumiy yo'nalishlaridan biri sanaladi. Agar o'quvchi yoki talabalar ta'lim jarayoniga faol mashg'ul etilsa, bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirishi shunchalik oson va qiziqarli kichadi. Shunga ko'ra metodik innavatsiyalarning aksariyat qismi aynan ta'limming interaktiv metodlarini qo'llash bilan bog'liq sanaladi.

Asosiy qism: Ta'lim sohasidagi yangi ustuvorliklar o'quvchilarni ta'lim va ta'limming yanada yaxshi natijalarga erishish imkonini beruvchi yangi zamonaviy samarali o'qitish texnalogiyalarini izlashga, ta'lim jarayonining yangi ta'lim taxnalogiyalarini, ya'ni shaxsga yo'nalgan pedagogik texnalogiyalarini joriy etishga va o'quvchilarga yangi bilimlarni berishda amaliyotda qo'llashga undaydi. Bunday holda o'qtuvchining shaxsiy yo'nalishi o'zgarishi kerak unung oldida nafaqat o'qitish va tarbiyalanishi kerak bo'lgan o'quvchilar balki yorqin noyob shaxslar borligini tasavvur qilishi kerak, ularni chuqur hurmat qilishi kerak. Har bir o'quvchi uchun yangi bilimlar berish professional o'qtuvchining asosiy vazifasiga aylanishi zarur. O'qitishning ustivorligi o'quvchilarni ma'lum bir narsani o'zlashtirishi uchungina emas, bilim ko'nikma va malakalar hajmi va o'quvchilarni bilim olish qobiliyati va mavzu ustida qayta ishlash kerakligi va boshqa mavzular bilan bog'lashda o'ziga qulay bo'lgan texnalogiyalar bilan ishlashni o'rgatsak shundagina o'quvchilarni bilimga bo'lgan extiyoj va qiziqishlarini uyg'otish mumkin. Agar biz hozir o'quvchilarni bilimga bo'lgan extiyojlarini shakllantirishga yordam bersak, ularni qanday egallahsga qo'l keladigan ilg'or texnalogiyalarini o'rgatsak, maktabni





tugatganidan keyin ham bu fazilat ularda qoladi. Keling, bir sayyora qiroli Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shag’zoda” ertagida aytganlaridan eslaylik: “Agar men generalimga dengiz qafasiga aylanishini buyursam, general buyuruqni bajarmasa, bu yerda uning aybi emas, balki meniki” bu so’zlar biz uchun nimani anglatishi mumkin?

Aslini olganda, ular muvaffaqiyatli o’qitishning eng muhim qoidalari ichiga oladi: o’zingiz va o’rgatuvchilaringiz uchun real maqsadlar qo’ying. Afsuski biz ko’pincha bu qoidani e’tiborsiz qoldiramiz. Biz uzoq ma’ruzalar o’qimiz, qiziqarli narsalarni xissiy jihatdan aytib beramiz (bizning fikirimizcha), biz bolalarga darslikdan katta parcha o’qish, uni aytib berish film namoyish qilish yoki butun dasrni o’yinash vazifasini berishimiz mumkin. Ammo vaqt o’tadi va bolalar xotirasida ular o’zlashtirishi kerak bo’lgan bilimlardan faqat parchalargina qoladi. Bu bolalarda o’rganilayotgan materialni aks ettirish uchun imkoniyat, vaqt va yetarlicha ko’nikmalarga ega emasligi sababli sodir bo’ladi.

Ta’limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo’lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta’limning maqsadi imkoniyatlardan to’g’ri, aniq, o’rinli foydalanish ko’nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g’oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma’naviy boyitishdan iboratligi ta’kidlangan. Ta’limiy maqsad asosida o’quvchilarda mustaqil fikrlash, og’zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma’naviy, g’oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Bilim o’rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkonи paydo bo’ladi. Ulug’ donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o’qit», degan ekan. Yurtimizda ta’lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma’noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma’noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o’zgarish bo’ldi, desak xato bo’lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg’urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko’ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo’lishlari kerak, degan g’oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko’rsatadi.

Hozirgi paytda ta’lim jarayonida axbarot texnologiyalar va interfaol metodlar o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish tabora ortib bormoqda. Buning sabablaridan biri shuki, shu vaqtgacha ta’lim jarayonida o’quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashgan bo’lsa, ilg’or texnologiyalardan foydalanish ularni





egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish hattoki yakuniy xulosalarni ham o'zları keltirib chqarishga o'rgatadi. O'qtuvchi bu jarayonda shaxsiy rivojlanishi shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi vas hu bilan bir qatorda boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchanlik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'lif "Chehralar(smayliklar)" "Kayfiyat haqida axborot", didaktik o'yin "Kim chaqqon", "Sehrli daraxt", "Besh pag'ona", "Quvnoq sharlar", "Besh barmoq", "Bahs-munozara", "Yumoloqlangan qor", "Fikirlar hujumi", "Aqliy hujum", "Zig-zag", "Sinkiveyn", "Oxirgi so'zni men aytay", Roli o'yini, Gugurt metodi, A4 formati metodi, Kichik guruhlarda ishlash kabi zamonaviy ilg'or texnologiyalardan foydalanilmoqda.

Dars mashg'ulotlarida o'yin topshiriqlarni mustahkamlash yoki takrorlash darslarida foydalanishsa o'ylaymizki ijobiy natija beradi albatta. O'yin topshiriqlarini qaysi bir turini tanlash darsning tashkil qilish turiga qarab, sinf o'quvchilarning o'yin-topshiriqlarini o'rgatilganlik darajasi, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olish, mustaqil ijodiy ish imkoniyatlari, ularning bilim saviyasi, ijodkorlikning qay darajada shakillanganligiga ham bog'liq bo'lishi kerak abatta. Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash vas hu fikrni og'zaki hamda yozma shakilda bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol topdirish asosiy o'rinni egallaydi. Millatning turmush tarzi madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi. Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridaqilardan kelib chiqib, yangi o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lif-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlarini samaradorligini oshirishda pedagoglarimizda amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar berishga harakat qilamiz. Siz undan ijodiy yo'ndashgan holda foydalanasiz va muhtaram birinchi prezidentimizning: «Har qarichi muqaddas bo'lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va iftixor, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko'raylik»[1], - degan fikrlariga javoban ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga o'z hissangizni qo'shasiz degan umiddamiz.





Aylana stol - bu interfaol metod nafaqat boshlang'ich ta'limda qolaversa katta sinflarda ham qo'l keladigan juda ham faol o'qitish metodi bo'lib, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish shakillaridan biridir. U oldin olingan bilimlarni mustahkamlash, yetishmayotgan axborotlarni to'ldirish, muammolarni xal etish ko'nikmalarini mustahkamlash baxs munozara yuritish madaniyatini shakillantirishga yordam beradi. "Aylana stol" metodining o'ziga xos xususiyati uning jamoaviy konsultatsiya bilan xamoxang olib borilishida namoyon bo'ladi.

"Aylana stol" metodining asosiy vazifasi:

- Mavzuga oid bir yoki ikki dolzarb muammoni hal qilish;
- Turli ko'rgazma materiallar yordamida fikrlarni illyustratsiyalar yordamida ifodalash(sxema, diagramma, chizma, audio, videoyozuvlар, rasm, kino hujjatlar);
- Asosiy so'zga chiquvchilarni puxta tayyorlash(faqat ma'ruza yoki axborot bilan cheklanib qolmay, o'z fikrini dalil va misollarni keltirish).

Biz yuqorida ko'rsatib o'tgan texnologiyalar hamda metodlardan ijodiy yondashgan holda foydalanasisiz va birinchi prezidentimizning: «**Har qarichi muqaddas bo'lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va iftixon, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko'raylik»[1], - degan fikrlariga javoban ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga o'z hissangizni qo'shasiz degan umiddamiz.**

Xulosa: Shuni ayta olamizki boshlang'ich sinflarda ilg'or texnologiyalar va interfaol metodlar va ta'limiyl o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. H.T.Omonova boshqalar "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". Darslik Toshkent - 2007.
2. Tolipov, Q, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent: "Fan", 2006. -B.262
3. O.Suvonov, S.Astanova. "Pedagogik mahorat". -Guliston, 2016 o'qituvchi



- 
4. Режаметова Н.И. Ўзбек халқ чолғулари воситасида болалар ижодкорлигини шакллантириш технологияларини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD)... дисс. Автореф. – Т., 2019.
 5. [1] Karimov I. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – Т: «O‘zbekiston», 2009, 15-bet.

